

## O`SMIRLIK DAVRIDAGI BILISH JARAYONLARI VA ULARNI O`RGANUVCHI METODIKALAR.

**Do`sjonova Nilufar Rustam qizi**

*Bakalavriat 3-bosqich*

*Ajiniyaz nomidagi Nukus Davlat Pedagogika Instituti*

**Annotatsiya:** Maqolada o`smirlik davrida bilish jarayonlarining o`ziga xosliklari, uning o`zgachaligi va ularni o`rganuvchi hamda o`smirlarning bilish jarayonlarini rivojlantiruvchi metodikalar haqidagi ma`lumotlar yoritilib o`tiladi.

**Kalit so`zlar:** Og`zaki va yozma nutq, ixtiyoriy, ixtiyorsiz diqqat, xotira, nazariy, amaliy tafakkur, metodika.

*«Ijtimoiy hayot uch narsaning ta`siri-til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi»*

**(J.Piaje.)**

Barchamizga ma`lumki, o`smirlik davri 10-11 yoshdan 14-15 yoshgacha bo`lgan davrni o`z ichiga oladi. Shuningdek bu davrga kelib o`g`il va qizlar rivojlanishining ijtimoiy shart-sharoitlari, psixikasi hamda xulq-atvorining o`ziga xos xususiyatlari o`zgarishlarga uchraydi. O`quv fanlariga nisbatan ijobiy munosabat shakllana boradi. O`smirlik davrida o`qishning yangi motivlari paydo bo`la boshlaydi va bu motivlar o`smirning shaxsiy fazilatlarini bilan bog`liq bo`lgan holda bevosita bilish jarayonlari rivojlanishiga o`z ta`sirini ko`rsatadi. Aynan bu davrga kelib bolalar ilmiy bilimlardan tashqari hayotiy bilimlarni o`rganishga ehtiyoj seza boshlaydilar. Bu bilimlar bevosita o`smirga ijobiy quvonch bag`ishlabgina qolmasdan uning tafakkur qilish layoqatini rivojlantiradi.

*Nutq.* Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq og`zaki va yozma mavjud bo`lishi bilan kuchli vosita hisoblanadi. Nutqni o`zlashtirishga harakat bu o`smirning muomala, bilish va ijodiy faoliyatga kirishiga ehtiyoj va intilish bo`lib hisoblanadi. U endi o`z nutqida yosh bola singari emas, balki katta odamlardek so`zlarni tanlab ishlatishga harakat qiladi. Bunda o`qituvchining o`rni juda muhimdir. Chunki o`qituvchi nutqi o`quvchilar uchun namunalidir, nutq hisoblanadi. Aynan maktab ta`limi o`smir bilish jarayonlarining to`g`ri rivojlanishi uchun muhim omil bo`lib topiladi. 5-sinfdan 9-sinfga qadar og`zaki va yozma nutqlar tobora mustahkamlanib rivojlanib boradi. Xususan bu jarayonni o`quvchilarning kichik bir parchani so`zlab berishidan, mustaqil

ravishda nutq va chiqishlar tayyorlash, mulohaza yuritish hamda ularni asoslab berishigacha o'zgargani orqali bilishimiz mumkin. Yozma nutqining rivojlanganligini esa bema'lol erkin mavzulardan insho yoza olishi kabi misollar orqali ko'rishimiz mumkin. Demak, o'smirlarning nutqi to'la tafakkur bilan bog'liq holatida amalga oshiriladi. O'smirlar nutqini rivojlanlantiruvchi mashqlar sirasiga quyidagi: o'smirning oynaga qarab gapirib o'rganishi, badiiy kitoblarni ko'p mutolaa qilishi, televideniyalardagi ko'rsatuv va xabarlarni muntazam ravishda ko'rib, ularni tahlil qilib borishi, o'qigan narsalarini biron kimga gapirib berishi, bilganlarini ovoz chiqarib ravon va adabiy tilda ayta olish kabi mashg'ulotlar kiradi.

*Diqqat.* O'smirlik davrida bola o'z diqqatini o'zi boshqara oladi. Bunda o'smir o'z diqqatini to'la ravishda o'zi uchun ahamiyatli va yuqori natijalarga erishishi mumkin bo'lgan faoliyatlarga qarata oladi. Bu davrda juda qattiq charchash holatlari ham kuzatilib turadi. Bu ko'rsatkich aynan 13-14 hamda 16 yoshlarda keskin ko'tariladi. Bunday holatda o'smir atrofdagi narsa va hodisalarga to'liq diqqatini qarata olmaydi. Pedagogik jarayonda o'smirdagi ixtiyorsiz diqqatni ixtiyoriy diqqat darajasiga ko'tarish uchun bir qancha uslublar ishlab chiqilgan. Xususan tarqoq diqqatni bir joyga to'plashda psixodiagnostik metodikalardan „Ko'z, og'iz, burun, quloq“ metodikasini misol qilib keltirishimiz mumkin. Bunda o'qituvchi barcha o'quvchilarni o'rinlaridan turg'azib ularga o'zi ko'rsatgan harakatlarni emas, balki aytgan so'zlarni o'zlarida ko'rsatishlarini aytadi. (Masalan, o'qituvchi o'zi quloqni ko'rsatib, ammo tilida bosh deb aytadi. O'quvchilardan ayrimlari o'qituvchisiga qarab boshni emas, u kabi quloqlarini ushlasa o'rniga o'tiradi.) Bu metodika o'qituvchiga qarab bajariladi.

*Xotira.* O'smirlik davrida xotiraning barcha turlari o'zining sifat ko'rsatkichlari asosida jadal rivojlanadi. Bu davrda o'quvchilar uchun berilgan o'quv darsliklari biroz qiyin va murakkabroq qilib berilgani uchun ularni esda saqlab qolishlari biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Ularda tobora faol mantiqiy xotira rivojlanib borgani sari, berilgan ma'lumotlarni so'zma-so'z yodlashdan voz kechib, ma'nosiga qarab aytishga o'ta boshlaydi. Bu orqali ulardagi mexanik xotiraning sustlashishi birmuncha salbiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu davrga kelib dars jadvaliga yangi fanlar qo'shilib, esda saqlab qolish zarur bo'lgan ma'lumotlar ko'paygani sari mexanik xotirasining ham sustlashganini ko'rishimiz va shuning oqibatida o'smirlarning o'qishga qiziqishining pasayishiga guvoh bo'lamiz. Buning oldini olishimiz uchun esa o'quvchi o'quv materialining mazmunini tahlil qilishi, undagi mantiqiy tuzilishini bilishi muhim. Xotira psixodiagnostikasida „Eshitish xotirasini baholash“ metodikasidan foydalanishimiz mumkin. Bunda

o`qituvchi oldiniga 13 ta so`zni 1 sekuntidan to`xtalib aytadi va o`quvchilarga esda qolgan so`zlarini yozishni aytadi. O`quvchilar esda qolgan so`zlarni yozib bo`lishgach, birma-bir o`qiy boshlaydi. Oxirida o`quvchilar tashlab ketgan so`zlarni to`g`irlashlari hamda boshqa payti ham mantiqiy xotirasini yaxshilashi uchun qiyoslab esda saqlashni o`rgatadi. Ya`ni bunda 13 ta raqamning har bittasiga mos keladigan so`zni moslab qo`yib xotiraga saqlashni o`rgatadi. (Masalan 1-raqamga oy deydi, sababi oy bitta, 2-paypoq deydi sababi paypoq ikki juft bo`ladi deb tushuntirib o`tadi)

*Tafakkur.* O`smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo`la boshlaydi. Sababi bu davrda o`quvchilar atrofdagi bog`liqliklar mazmunini bilishga harakat qilishadi hamda bilishga bo`lgan qiziqishi ham ortadi. Har taraflama bilimlarning o`zlashtirilib olinishi o`smir tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. Buning oqibatida har bitta narsani isbotlab o`rganishi hamda fikrlash qobiliyati ham rivojlanib, deduktib xulosalar chiqarish qobiliyati paydo bo`ladi. J.Piajening ta`kidlashicha, „*Ijtimoiy hayot uch narsaning ta`siri-til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi*“. Bu borada o`zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o`z-o`zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi. O`smir tafakkuri umumlashtirishga moyil bo`ladi. Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga kishilardagi amaliy tafakkurning ahamiyati oshmoqda. Amaliy tafakkurga quyidagi aqliy sifatlar kiradi: tadbirkorlik, tejamkorlik, hisob-kitoblik, yuzaga kelgan muammoni tez yecha olishlik kabi. Bu sifatlarni bolaning 1-sinfligidanoq rivojlantirib borish darkor. O`smirlik davrida tadbirkorlikni rivojlantirishda ko`proq mustaqillikning berilishi o`smir amaliy tafakkurining rivojlanishiga o`zining ijobiy ta`sirini ko`rsatadi.

Psixodiagnostikada tafakkurning 3 ta asoiy sifati- tezligi, egiluvchanligi va orginallik darajasini aniqlash uchun „Vartega doiralari“ metodikasi qo`llaniladi. Bunda o`quvchilar ularga berilgan varaqda tasvirlangan 20 ta doiraning tasviridan asos sifatida foydalanib, turli narsa va hodisalarni chizishlari zarur bo`ladi. Rasmlarni doiralar ichida ham, ulardan tashqariga chiqib ham chizishlari mumkin. Rasmlar chapdan o`ngga qarab chizilishi lozim. Ish uchun o`quvchilarga 5 daqiqa vaqt beriladi. O`quvchilarga rasmlar imkon qadar original hamda betakror bo`lib chiqishiga intilishlari aytiladi. Natijasini hisoblashda tafakkur tezligi bo`yicha har bitta rasm uchun 1 balldan baho qo`yiladi. Tafakkur egiluvchanligi bo`yicha rasmlar tabiat, maishiy, buyumlar, fan va texnika, sport, bezak buyumlari, odam, iqtisod va odam kabi guruhlarga bo`linib har bitta guruh uchun 1 balldan beriladi. Tafakkur orginalligi bo`yicha esa har bitta kamyob rasm uchun 2 balldan baho qo`yiladi. Oxirida jami ballar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o`smirlik davri qiziqishlarga, intilishlarga boy hamda har qanday yuzaga kelishi mumkin bo`lgan krizisli vaziyatlarni psixodiagnostik korreksiyalash orqali hal qilsa va to`g`irlasa bo`ladigan psixologik davrdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umumiy psixologiya. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova Toshkent-2010
2. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Z.T.Nishanova, N.G`.Kamilova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova Toshkent-2019
3. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. Z.Nishanova, D.Qarshiyeva, N.Ataboyeva, Z.Qurbonova Toshkent-2018
4. Umumiy psixologiya. E.G`oziyev Toshkent-2002
5. Pedagogik mahorat. A.Xoliqov Toshkent-2011